



Axmad BAISOV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., PhD

E-mail: a.baisov@cspu.uz

DSc, professor Sh.Botirova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK ROMANLARIDA FALSAFIY-PSIXOLOGIK VA MIFOLOGIK MOTIVLAR RIVOJI

Anotatsiya

Ushbu maqolada roman janrining tarixiy shakllanish jarayoni, uning bosqichma-bosqich evolyutsiyasi hamda o'zbek va ingliz adabiyotidagi rivojlanish xususiyatlari qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqotda roman janrining og'zaki ijod va epik an'analardan boshlangan shakllanish ildizlari, keyinchalik yozma adabiyotda mustaqil janr sifatida qaror topishi va turli davrlarda ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy omillar ta'sirida yangilanib borishi yoritilgan. Shuningdek, realizm, modernizm va postmodernizm bosqichlarida roman janrining mazmuniy va shakliy o'zgarishlari tahlil qilinadi. Maqolada o'zbek romanchiligining milliy ildizlari, jadidchilik davri, sovet davri va mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti hamda ingliz romanchiligining jahon adabiyotidagi o'rni ilmiy asosda ochib beriladi. Tadqiqot natijalari roman janrining universalligi, moslashuvchanligi va badiiy tafakkur rivojidadagi muhim ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: roman janri, badiiy tafakkur, evolyutsiya, o'zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti, realizm, modernizm, postmodernizm, psixologizm, mifologik motivlar.

РАЗВИТИЕ ФИЛОСОФСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И МИФОЛОГИЧЕСКИХ МОТИВОВ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ РОМАНАХ

Аннотация

В данной статье исследуются исторические этапы формирования жанра романа, его поэтапная эволюция, а также особенности развития в узбекской и английской литературе на основе сравнительно-аналитического подхода. В работе освещаются истоки жанра, восходящие к устному народному творчеству и эпическим традициям, а также процесс его становления как самостоятельной формы в письменной литературе. Особое внимание уделяется влиянию социально-политических и культурных факторов на трансформацию жанра в различные исторические периоды. Анализируются изменения в содержании и форме романа в эпохи реализма, модернизма и постмодернизма. Кроме того, раскрываются национальные особенности узбекского романа, включая период джадидизма, советскую эпоху и годы независимости, а также значение английского романа в мировой литературе. Полученные результаты подтверждают универсальность, адаптивность и значимость жанра романа в развитии художественного мышления.

Ключевые слова: жанр романа, художественное мышление, эволюция, узбекская литература, английская литература, реализм, модернизм, постмодернизм, психологизм, мифологические мотивы.

THE DEVELOPMENT OF PHILOSOPHICAL-PSYCHOLOGICAL AND MYTHOLOGICAL MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK NOVELS

Annotation

This article explores the historical formation of the novel genre, its step-by-step evolution, and its specific features in Uzbek and English literature through a comparative-analytical approach. The study traces the origins of the novel back to oral traditions and epic narratives, highlighting its gradual development into an independent literary form within written literature. Particular attention is paid to the influence of socio-political and cultural factors on the transformation of the genre across different historical periods. The paper also analyzes the structural and thematic changes of the novel during the periods of realism, modernism, and postmodernism. Furthermore, it examines the national characteristics of Uzbek novelism, including the Jadid period, the Soviet era, and the years of independence, as well as the role of the English novel in world literature. The findings demonstrate the universality, adaptability, and significant role of the novel genre in the development of artistic thinking.

Keywords: novel genre, artistic thinking, evolution, Uzbek literature, English literature, realism, modernism, postmodernism, psychologism, mythological motifs.

Kirish. Insoniyat tafakkuri rivoji bilan uzviy bog'liq bo'lgan badiiy adabiyot uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanib kelgan. Ayniqsa, roman janri badiiy tafakkurning eng murakkab va rivojlangan shakllaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu janrning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy, falsafiy hamda ruhiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir tarixiy bosqichda insonning dunyoqarashi, qadriyatlar va ehtiyojlari o'zgarib borgani sari roman janri ham yangi mazmun va shakl kasb etib borgan. Roman janri boshqa epik janrlardan farqli ravishda keng qamrovliligi, hayotiy voqelikni chuqur va har

tomonlama aks ettira olishi bilan ajralib turadi. Unda nafaqat tashqi voqealar rivoji, balki insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, ijtimoiy muammolar va ma'naviy izlanishlar ham badiiy ifodasini topadi. Shu jihatdan roman inson hayotining murakkabligini yoritishda eng qulay va samarali janrlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, roman janri qat'iy qoliplarga bo'ysunmaydigan, doimiy o'zgarishda bo'lgan ochiq tizim sifatida qaraladi. Har bir davr uni o'zining estetik mezonlari asosida talqin qiladi va yangi badiiy unsurlar bilan boyitadi. Shu sababli roman janrini faqatgina ma'lum bir davr yoki hudud doirasida o'rganish

yetarli emas, balki uni tarixiy taraqqiyot va qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish muhimdir.

Roman janrining shakllanishida og'zaki xalq ijodi, epik an'analar, diniy va mifologik tasavvurlar muhim o'rin tutgan. Keyinchalik yozma adabiyotning rivojlanishi bilan bu janr tobora mukammallashib, murakkab kompozitsion tuzilishga ega bo'ldi. Ayniqsa, Yevropa adabiyotida roman janri tez sur'atlarda taraqqiy etib, jahon adabiyotining yetakchi janriga aylandi. O'zbek romanchiligi ham ana shu umumiy adabiy jarayonning tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Milliy adabiyotimizda roman janri xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot an'analarini zaminida rivojlanib, keyinchalik G'arb adabiyoti ta'sirida yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi ijodkorlarning o'rni beqiyosdir. Shu bilan birga, ingliz romanchiligi ham jahon adabiyotida yetakchi yo'nalishlardan biri sifatida roman janrining rivojiga katta hissa qo'shgan. Ingliz yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlar nafaqat milliy, balki global miqyosda ham badiiy tafakkur rivojiga ta'sir ko'rsatgan. Mazkur maqolaning maqsadi roman janrining tarixiy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini o'zbek va ingliz adabiyoti misolida qiyosiy tahlil qilishdan iboratdir. Tadqiqot davomida ushbu janrning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish omillari hamda zamonaviy bosqichdagi tendensiyalari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Roman janrining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon natijasi bo'lib, uning ildizlari qadimgi badiiy tafakkur shakllariga borib taqaladi. Yozma adabiyot paydo bo'lishidan avval ham insoniyat o'z hayoti, dunyoqarashi va kechinmalarini og'zaki ijod orqali ifodalab kelgan. Miflar, afsonalar, rivoyatlar va xalq dostonlari badiiy tafakkurning dastlabki ko'rinishlari sifatida keyinchalik roman janrining shakllanishiga muhim zamin yaratgan. Dastlabki bosqichlarda roman alohida mustaqil janr sifatida emas, balki epik asarlar tarkibida mavjud bo'lgan. Qadimgi yunon va rim adabiyotidagi ayrim nasriy asarlar, shuningdek, Sharq adabiyotidagi yirik epik dostonlar roman janriga xos belgilarni o'zida mujassam etgan. Masalan, Sharq adabiyotida Firdavsiyning "Shohnoma"si, Navoiy "Xamsa"sidagi ayrim syujetlar, Rabg'uziy qissalari voqeabandlik, obrazlar tizimi va badiiy tafsilotlarning kengligi bilan romanga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, dastlabki davrlarda roman ko'proq she'riy shaklda ifodalangan. Bu esa badiiy tafakkurning o'sha davrdagi estetik talablariga mos kelgan. Keyinchalik esa nasriy shaklning rivojlanishi bilan roman janri ham asta-sekin mustaqil badiiy shaklga aylana boshladi. Yozma adabiyotning kengayishi, savodxonlik darajasining oshishi va kitobxonlar qatlamining shakllanishi roman janrining rivojiga kuchli turtki berdi.

Antik davrda yuzaga kelgan ayrim nasriy asarlar (yunon-rom romanlari) roman janrining ilk namunalaridan biri sifatida qaraladi. Biroq ular hali mukammal badiiy tizimga ega bo'lmagan, asosan sarguzasht va maishiy voqealar doirasida qolib ketgan. Shu sababli bu davrdagi roman shakllari keyingi bosqichlarga nisbatan rivojlanmagan deb baholanadi. O'rta asrlarga kelib, Yevropa adabiyotida "ritsar romanlari" keng tarqaldi. Bu asarlarda jasorat, sadoqat, sevgi va sarguzasht motivlari yetakchi o'rin egallagan bo'lib, ular keyinchalik realistik roman shaklining yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, Sharq adabiyotida ham tasavvufiy va falsafiy mazmundagi asarlar orqali inson ruhiyati va ichki olami tasviriga alohida e'tibor qaratilgan.

Roman janrining shakllanishida muhim omillardan biri jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va tafakkur darajasidir. Jamiyat taraqqiy etgan sari inson shaxsiga bo'lgan e'tibor ortib, uning ichki dunyosini tasvirlash zarurati kuchaydi. Aynan shu ehtiyoj roman janrining mustaqil va yetuk badiiy shakl sifatida

shakllanishiga olib keldi. Roman janrining dastlabki bosqichlari og'zaki ijod, epik an'analar va ilk nasriy asarlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u uzoq evolyutsion rivojlanish natijasida mustaqil janr darajasiga yetdi. Bu jarayon keyingi davrlarda roman janrining yanada mukammallashuvi va keng tarqalishi uchun mustahkam asos yaratdi.

Roman janrining rivojlanish bosqichlari tarixiy jarayonlar, ijtimoiy o'zgarishlar va badiiy tafakkur evolyutsiyasi bilan chambarchas bog'liq holda kechgan. Dastlab shakllanish bosqichini bosib o'tgan ushbu janr keyinchalik Yevropa adabiyotida, ayniqsa ingliz va fransuz adabiyotida jadal rivojlandi hamda mustaqil epik janr sifatida shakllandi. XIV–XVII asrlarda roman janri hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, bu davrda uning rivojiga zamin bo'luvchi asarlar paydo bo'ldi. Ayniqsa, "ritsar romanlari" va sarguzasht asarlari keng tarqalib, ularda fantastik voqealar, sevgi va jasorat motivlari asosiy o'rin egalladi. Bu asarlar real hayotdan ancha uzoq bo'lsa-da, keyinchalik roman janrining kompozitsion va syujet qurilishiga ta'sir ko'rsatdi. XVIII asrga kelib roman janri tub burilish davrini boshdan kechirdi. Bu davrda ma'rifatparvarlik g'oyalari keng tarqalib, inson shaxsiga, uning aqliy va ma'naviy kamolotiga e'tibor kuchaydi. Natijada romanlarda real hayot voqealari, ijtimoiy muammolar va inson taqdiri chuqurroq yoritila boshladi. Ingliz adabiyotida Daniel Defo, Samuel Richardson va Henry Fielding kabi yozuvchilar roman janrining rivojiga katta hissa qo'shdilar.

XIX asr roman janrining eng yuksak rivojlanish davri hisoblanadi. Bu davrda realizm yo'nalishi yetakchi o'rin egallab, hayotning haqqoniy tasviri asosiy mezonga aylandi. Yozuvchilar jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, insoniy muammolar, axloqiy qadriyatlar va ruhiy kechinmalarni chuqur tahlil qildilar. Ingliz adabiyotida Charles Dickens, William Thackeray, Thomas Hardy kabi yozuvchilar, rus adabiyotida Lev Tolstoy va Fyodor Dostoyevskiy roman janrini yangi bosqichga olib chiqdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida esa roman janrida yangi estetik qarashlar yuzaga keldi. Realizm o'rni asta-sekin modernizm egallay boshladi. Modernistik romanlarda an'anaviy syujet va kompozitsiya buzilib, inson ongining murakkab jarayonlari, ichki monolog va ong oqimi usullari keng qo'llanildi. Bu davrda James Joyce, Franz Kafka, Virginia Woolf kabi yozuvchilar roman janrining badiiy imkoniyatlarini kengayitdilar.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib roman janrida postmodernizm yo'nalishi shakllandi. Bu davr romanlarida intertekstualiy, metafora, ironiyaga boy uslublar, vaqt va makonning nisbiyligi kabi xususiyatlar yetakchi o'rin egalladi. Yozuvchilar voqelikni an'anaviy tarzda emas, balki fragmentar va ko'p qatlamli tarzda tasvirlay boshladilar. Shu bilan birga, roman janrining rivojlanishida ijtimoiy-siyosiy omillar ham muhim rol o'ynadi. Inqiloblar, urushlar, siyosiy tuzumlarining o'zgarishi badiiy tafakkurga kuchli ta'sir ko'rsatib, roman mazmuni va shaklining yangilanishiga sabab bo'ldi. Roman janrining rivojlanish bosqichlari uzluksiz evolyutsion jarayon bo'lib, u har bir tarixiy davrda yangi mazmun va shakl bilan boyib borgan. Ushbu jarayon roman janrining bugungi kunda ham dolzarb va universal adabiy shakl sifatida saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

O'zbek romanchiligining shakllanishi milliy adabiyot taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, u uzoq tarixiy ildizlarga ega. Ushbu jarayonni to'liq anglash uchun, avvalo, o'zbek adabiyotining og'zaki ijod an'analari, mumtoz yozma merosi va ijtimoiy-tarixiy sharoitlarini inobatga olish zarur. Chunki roman janri milliy adabiyotimizda birdaniga paydo bo'lgan hodisa emas, balki ko'p asrlik badiiy tajribaning mantiqiy natijasidir. O'zbek romanchiligining dastlabki asoslari xalq og'zaki ijodida, xususan, dostonlar, rivoyatlar va qissalarda mujassamdir. "Alpomish", "Go'ro'gli" kabi epik

asarlarda voqebandlik, qahramonlar tizimi, dramatik konflikt va badiiy tafsilotlarning keng qamrovi keyinchalik roman janriga xos bo'lgan unsurlarni shakllantirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, mumtoz adabiyotda yaratilgan masnaviy asarlar ham epik tafakkurning rivojlanishida muhim o'rin tutgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda katta o'zgarishlar yuz berdi. Jadidchilik harakati vujudga kelib, milliy uyg'onish g'oyalari keng tarqaldi. Bu jarayon adabiyotda ham yangilanishga olib keldi. Aynan shu davr o'zbek romanchiligining shakllanishi uchun muhim tarixiy zamin yaratdi.

O'zbek roman janrining asoschisi sifatida Abdulla Qodiriy alohida e'tirof etiladi. Uning "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari milliy romanchilikning ilk mukammal namunalaridan hisoblanadi. Bu asarlarda tarixiy voqelik, ijtimoiy munosabatlar, inson taqdiri va ruhiy kechinmalar chuqur va haqqoniy tasvirlangan. Qodiriy romanlarida milliy ruh va G'arb romanchiligi an'analari uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Qodiriydan keyingi davrda Cho'lpon, Fitrat kabi ijodkorlar ham roman janrining rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar. Biroq 1930-yillardagi siyosiy repressiyalar milliy adabiyot rivojiga jiddiy to'siq bo'ldi. Shunga qaramay, keyingi davrlarda o'zbek romanchiligi yana tiklanib, yangi bosqichga ko'tarildi. XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek romanchiligida yangi avlod yozuvchilari maydonga chiqdi. Oybek, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'tkir Hoshimov kabi adiblar roman janrini mazmun va shakl jihatidan boyitdilar. Ularning asarlarida inson ruhiyati, ijtimoiy muammolar, tarixiy jarayonlar va ma'naviy qadriyatlar chuqur yoritilgan.

Mustaqillik davriga kelib o'zbek romanchiligida yangi yo'nalishlar yuzaga keldi. Bu davrda yozuvchilar erkin ijod qilish imkoniyatiga ega bo'lib, falsafiy, psixologik va mifologik motivlarga murojaat qila boshladilar. Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton kabi yozuvchilarning asarlarida zamonaviy insonning ichki kechinmalari, ijtimoiy o'zgarishlar va o'tish davrining murakkabliklari o'z aksini topdi. Shuningdek, o'zbek romanchiligida jahon adabiyoti ta'siri ham sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. Ingliz, rus, fransuz va boshqa adabiyotlarning ilg'or an'analari milliy roman janrining yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, o'zbek yozuvchilari milliylikni saqlagan holda global adabiy jarayonlarga moslashishga intilmoqdalar. O'zbek romanchiligi ko'p bosqichli taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, u milliy

an'analari va jahon adabiyoti tajribasining uyg'unlashuvi natijasida shakllangan. Bugungi kunda ushbu janr o'zining yangi badiiy qirralarini namoyon etib, zamonaviy adabiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlanishda davom etmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, roman janri insoniyat badiiy tafakkurining eng murakkab va ko'p qirrali shakllaridan biri hisoblanadi. Uning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon mahsuli bo'lib, og'zaki xalq ijodi, epik an'analari hamda yozma adabiyot taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda yuzaga kelgan. Roman janri dastlab epik asarlar tarkibida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik mustaqil va yetuk badiiy tizim sifatida rivojlanib, jahon adabiyotining yetakchi janriga aylangan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, roman janrining taraqqiyoti har bir tarixiy davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va falsafiy muhitiga bevosita bog'liq holda kechgan. XVIII–XIX asrlarda realizm asosida shakllangan romanlar hayotning haqqoniy tasviriga e'tibor qaratgan bo'lsa, XX asrga kelib modernizm va postmodernizm yo'nalishlari orqali inson ongining murakkab jarayonlari, ichki kechinmalari va badiiy tafakkurning yangi shakllari aks ettirila boshladi. Bu esa roman janrining doimiy ravishda yangilanib boruvchi ochiq tizim ekanligini tasdiqlaydi. O'zbek romanchiligi milliy adabiy an'analari, xalq og'zaki ijodi va mumtoz meros zaminida shakllanib, Abdulla Qodiriy ijodi orqali mukammal badiiy shaklga ega bo'ldi. Keyingi davrlarda esa o'zbek yozuvchilari jahon adabiyoti tajribasini o'zlashtirgan holda roman janrini mazmun va shakl jihatidan boyitdilar. Mustaqillik davrida esa milliy romanchilik yangi bosqichga ko'tarilib, unda falsafiy, psixologik va mifologik motivlar ustuvorlik kasb eta boshladi. Ingliz romanchiligi esa roman janrining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin egallab, jahon adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu adabiyotda yaratilgan romanlar badiiy uslub, kompozitsiya va psixologik tahlil jihatidan yuqori darajada takomillashgan bo'lib, boshqa milliy adabiyotlar, jumladan, o'zbek romanchiligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Umuman olganda, o'zbek va ingliz romanchiligi o'rtasidagi qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki adabiyotda ham roman janri tarixiy taraqqiyot jarayonida o'ziga xos yo'lni bosib o'tgan bo'lsa-da, ularning rivojlanishida umumiy qonuniyatlar mavjud. Bu esa roman janrining universalligini, moslashuvchanligini va badiiy tafakkur taraqqiyotidagi muhim o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bois, roman janri bugungi kunda ham nafaqat badiiy-estetik, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega bo'lib, inson va jamiyat hayotini chuqur va keng qamrovda aks ettiruvchi muhim adabiy shakl sifatida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Qodiriy A. "O'tgan kunlar" Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot, 2019. – 320 b.
2. Qodiriy A. "Mehrobdan chayon" Toshkent, Sharq nashriyoti, 2020. – 280 b.
3. Quronov D. "Adabiyotshunoslik nazariyasi" Toshkent, Akademiya nashri, 2018. – 256 b.
4. Mirvaliev S. "Adabiyot nazariyasi asoslari" Toshkent, O'qituvchi, 2017. – 240 b.
5. Бахтин М. "Роман жанрининг назарияси ва хронотоп муаммолари". Москва, Наука, 1975. – 450 б.
6. Joyce J. "A Portrait of the Artist as a Young Man" London, Penguin Books, 2003. – 288 p.
7. Kafka F. "The Trial" New York, Schocken Books, 1998. – 255 p.
8. Camus A. "The Stranger" London, Penguin Classics, 2000. – 123 p.
9. Hemingway E. "The Old Man and the Sea" New York, Scribner, 1995. – 127 p.
10. Dickens Ch. "Great Expectations" London, Wordsworth Editions, 2002. – 505 p.
11. Woolf V. "Mrs Dalloway" London, Hogarth Press, 1925. – 296 p.
12. Do'stmuhammad X. "Bozor" Toshkent, Yangi asr avlodi, 2011. – 220 b.
13. Hamdam U. "Muvozanat" Toshkent, Sharq, 2007. – 180 b.